

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

Elektron qurilmalarni loyihalash va  
konstruktsiyalash (CAD, CAM, CAE)  
kurs loyihasi uslubiy ko'rsatmalar

УДК  
ББК

Kadirov R.K., Gulyamova S.T., O'roqov A.N. Elektron qurilmalarni loyihalash va konstruktsiyalash (CAD, CAM, CAE). Kurs loyihasiga uslubiy ko'rsatmalar – T.: ToshDTU, 2020. -24 b.

Toshkent davlat texnika universitetining Ilmiy –uslubiy Kengashi qarori asosida nashrga tavsiya etildi.

Uslubiy ko'rsatmada “Elektron qurilmalarni loyihalash va konstruktsiyalash (CAD, CAM, CAE)” fanining dasturiga muvofiq bajariladigan kurs loyihasining tuzilishi va mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar ko'rsatilgan. Multisim muhitida raqamli qurilmani loyihalashtirish namunasi keltirilgan.

Uslubiy ko'rsatma oliy ta'lim muassasalarining 5321900 - Elektron apparatlarni ishlab chiqarish texnologiyasi bakalavr tayyor garlik yo'nalishi bo'yicha talabalarira mo'ljallangan. Sirtqi va masofiy o'qitiladigan elektrotexnik yo'nalishdagi talabalar uchun ham qo'llanma sifatida tavsiya etiladi.

**Taqrizchilar:** Abduraxmanov B.A. –TDTU, EAF, “REM” kafedrasи,  
PhD  
Po'latov Sh.– TATU, “Mobil aloqa texnologiyalari ”  
kafedrasи mudiri, t.f.n.

## KIRISH

«Elektron qurilmalarni loyihalash va konstruktsiyalash (CAD, CAM, CAE)» fani bo'yicha tuzilgan kurs loyiha DTS talablari asosida tuzilgan bo'lib, 5321900 – apparatlarni ishlab chiqarish texnologiyasi yo'naliши talabalari uchun «Elektron qurilmalarni loyihalash va konstruktsiyalash (CAD, CAM, CAE)» fanining mos dasturi asosida yaratilgan.

Ko'rsatma kurs loyihasini bajarish uchun topshiriq va Multisim virtual modellashtirish muhiti yordamida raqamli qurilmalarni qurish va ishlashni amaliy o'rganish uchun kerakli uslubiy ko'rsatmalarni o'z ichiga oladi.

Uslubiy ko'rsatma sodda va murakkab raqamli qurilmalarni ketma-ket o'rganish uchun ierarxik strukturaga ega. Oldin kombinatsion mantiqiy sxemalarning yaratilish printsiplari va ishi, so'ngra xotira xossalariiga ega bo'lgan qurilmalar haqida ma'lumot beriladi. Har bir o'rganilayotgan obyekt bo'yicha asosiy tushunchalar, tasnifi, shartli belgilanishi, parametrлари keltiriladi. Nazariy qismidan keyin olingan bilimlarni amaliy o'zlashtirish- virtual stendda raqamli qurilmalarni sintez va tahlili amalga oshiriladi. O'z- o'zini nazorat va materialni yaxshi mustahkamlash uchun har bir bo'limning oxirida mustaqil ish uchun topshiriq va nazorat savollari beriladi.

Ushbu ko'rsatmada asosiy raqamli qurilmalarni o'rganish Multisim muhiti imkoniyatlaridan foydalanim kurs loyihasini loyihalashtirish bilan tugallanadi.

### 1. Kurs loyihasining maqsadi

Kurs loyihasining maqsadi nazariy bilimlarni amaliyotda mustahkamlash, rivojlantirish va berilgan sxemani tahlil qilish jarayonida muhandislik yechimlarini topishdagi ko'nikmalarni tekshirish, shuningdek, olingan nazariy natijalarni rivojlantirish, shuningdek, loyihalanayotgan qurilmaning turli xil variantlarni yaratish va uning asosiy parametrlarini eksperimental tadqiq qilish malakalariga ega bo'lish.

Kurs loyihasining vazifalari “Raqamli sxemotexnika”, “Elektron qurilmalarni loyihalash va konstruktsiyalash (CAD, CAM, CAE)” fanlarini o'zlashtirishda egallagan nazariy bilimlarni mustahkamlashdan iborat.

Kurs loyihasini bajarish jarayonida talabalar raqamli qurilmalarning sxemalarini yaratish va maxsus adabiyotlar bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'ladi.

## 2. Kurs loyihasini bajarish bo'yicha ko'rsatmalar

Kurs loyihasi bir o'quv semestr davomida bajariladi va tugatilgan bo'lishi, topshiriqda ko'rsatilgan muddatda himoya qilinishi kerak.

Kurs loyihasiga topshiriq har bir talabaga loyiha rahbari tomonidan beriladi va kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi. Kurs loyihasi topshiriq varag'i mundarijadan keyin qo'yiladi va kurs loyihasi uchun boshlang'ich ma'lumotlar ularning qiymatlari variantlarini jadval ko'rinishida berilgan bo'ladi. (Ilova 2)

Kirish qismida raqamli qurilmalarning hozirgi paytda o'rni, ishlab chiqarishning turli sohalarida va maishiy hayotdagi qo'llanilishi keltiriladi. Shuningdek, asosiy raqamli sxema elementlari, ularning seriyalari, keng tarqalgan raqamli sxemaning funksional uzellarini ta'kidlab o'tish mumkin. Kurs ishining ushbu qismida anik ko'nikmalarga ega bo'lishdagi o'quv vazifalari bilan bog'liq bo'lgan ishning maqsadi shakllantiriladi. Bu yerda shuningdek, kurs loyihasining topshirig'iga mos bo'lgan raqamli sintezlanayotgan qurilmaning strukturali sxemasini keltirish mumkin.

Loyihalanayotgan raqamli qurilmaning element bazasini tanlash, RQning sintezi uchun raqamli integral sxemaning seriyasini tanlash, masalan K1533, K561, hisoblagich sxemaning holatlar indikatorini tanlash; kodlash turini tanlashdan iboratdir. Tanlovni asoslash uchun uslubiy ko'rsatmada tavsiya qilinayotgan adabiyotlardan foydalansa bo'ladi.

Raqamli sxemaning sintezi kurs loyihasining 1-5 bo'limlarida Multisim muhitidan foydalanilgan holda amalga oshiriladi.

Xulosa qismida loyihani bajarish jarayonida echiladigan o'quv vazifalari aks ettirilishi kerak.

Ilovada loyihalanayotgan raqamli qurilmaning tarkibiga kiradigan elektron komponentlar, ularning shartli belgilanishlari va ularning ma'lumotnomadagi parametrлari kiritilishi kerak.

### 3. Bajarish tartibi va muddatlari

Talaba kurs loyihasiga topshiriq oladi va o'qituvchi rahbarligida mavzu bo'yicha mustaqil izlanish olib boradi. Kurs loyihasida talaba nazariy bilimlarga tayanib, elektron qurilmaning funktksional va printsiplial elektr sxemasini yaratishi va dasturiy ta'minot orqali uni modelini yaratib, loyihaning oxirida esa qurilmaning maketini tayyorlab, himoyaga olib chiqadi.

Talaba kurs loyihasiga topshiriqni olib ishni quyidagi ketma-ketlikda tashkil etadi:

- 1) qo'yilgan masalaning loyihalanayotgan qurilmaning texnik parametrlariga bog'liq bo'lgan bor variantlarini va topshiriqni aniqlashtiradi;
- 2) loyihaga tegishli mavzu bo'yicha adabiyotlarni tanlab o'rghanadi;
- 3) rahbari bilan "Kurs loyihasiga topshiriqni" kelishib, uni rasmiylashtirib, ishlab chiqadi;
- 4) sxemaning funktksional va strukturali variantlarini ishlab chiqadi, ularni taqqoslab baholaydi.

Kurs loyihani bajarish muddatlari quyidagi 1-jadvalda keltirilgan

1-jadval

	Semestr haftalari																
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17
Bosqichlar bo'yicha bajariladigan ishlar																	
Topshiriqlarni olish	+																
Topshiriqlarni o'rganish va adabiyotlarni tanlash		+															
Mavjud yechimlarning tahlili va qurilmaning funktksional sxemasini yaratish			+	+													
Qurilmaning printsiplial sxemasini ishlab chiqish					+	+	+										
Elektr hisoblashlarni bajarish								+	+	+	+						
Modelli va naturali eksperimentni olib borish									+	+	+						

Tushuntirish qismini rasmiylashtirish											+ + +	
Kurs loyihasini himoyaga tayyorlash												+

## Kurs loyihasining hajmi

Kurs loyihasining hajmi 25 betdan 35 betgacha

Kirish qismi-1-2 bet

Asosiy qism- 15-21 bet

Hisob-grafik qismi- 5-12 bet

### 4. Kurs loyihasi(ishi)ning mavzulari va mavzularni tanlash tartibi

Kurs loyihasining mavzusi analogli yoki raqamli elektron qurilmani yaratishdan iborat. Aniq qurilmaning xarakteristikalariga qo'yiladigan talabalar topshiriq variantlarida keltirilgan.

Kurs loyihasining mavzulari quyidagilardan iborat:

raqamli qurilmalarning funksional uzellarini loyihalash: kod o'zgartkichlar, shiffratorlar, deshiffratorlar, multipleksorlar, demultipleksorlar, summatorlar, registrlar, hisoblagichlar, raqamli signallarni o'zgartkichlar.

### 5. Hisob-tushuntirish qismiga talablar

Kurs loyihasi tushuntirish yozuvi va grafik qismidan iborat bo'lishi kerak. Tushuntirish yozuvi loyihalanayotgan qurilmaning funksional bloklari sintezi va hisoblashlarni o'z ichiga oladi. Grafik material loyihalanayotgan qurilmaning printsipial sxemasidir.

Tushuntirish yozuvi Microsoft Word muhitida A4 (297x210 mm) formatli varaqda rasmiylashtiriladi. Varaq yo'naliishi- kitobiy. Shrift-Times New Roman, oddiy o'lcham 14 pt. Abzats – kenglikka tenglashtiriladi, birincha qator 1sm cheklanish bilan, qatorlar orasidagi interval- 1,5. Maydon o'lchamlari: yuqori va pastki-2 sm, chap tomondagisi-3 sm, o'ng tomondagisi-1,5 sm. Tushuntirish yozuvi hajmi 25-30 varaq.

Tekst varaqning bir tomonida joylashadi. Betlar arab raqamlari bilan o'ng burchakda raqamlanadi. Titul varag'i raqamlanmaydi. Raqamlanish avtomatik ravishda Vstavka-Nomera stranits, yoki Vid-Kolontitul buyruqlari bilan amalgalashadi.

Bo'limlar va qism bo'limlar nuqta bilan ajratilgan arab raqamlari bilan raqamlanadi: birinchi raqam-bo'lim raqami, keyingisi qism bo'limining raqami hisoblanadi. Shu usulda jadvallar va rasmlar tegishli bo'lim bo'yicha raqamlanadi.

Hisob-tushuntirish qismining strukturasi quyidagicha:

- titul varag'i;
- kurs loyihasining mundarija varag'i;
- variant bo'yicha topshiriq varag'i;
- mundarijaga muvofiq kurs loyihasi bo'limlari;
- adabiyotlar ro'yxati;
- ilova

Titul varag'ining namunasi Illova 1 da keltirilgan.

Mundarija varag'i quyidagi punktlardan iborat:

Topshirig'i ( variantga mos);

Kirish;

- 1) loyihalanayotgan raqamli qurilmaning elementar bazasini tanlash;
- 2) hisoblagich sxemasining deshifratorlarning sxemasini sintezi;
- 3) hisoblagich sinxron sxemasi sintezi;
- 4) chastota buluvchisi sxemasi sintezi;
- 5) raqamli impulslar manbaining sxemasini sintezi;

Xulosa.

Illova.

Adabiyotlar ro'yxati

Texnik topshiriqda yaratilayotgan qurilmaning vazifasini, texnik xarakteristikalarini va unga qo'yiladigan talablarni aniqlab olish kerak.

## 6. Grafik qismini rasmiylashtirishga talablar

### 6.1. Kurs loyihasini Multisim muhitida bajarish namunasi

Multisim dasturi kurs loyixasini bajarish uchun qulay vositadir, chunki u fakat katta komponentlar kutubxonasiga ega bulib kolmay, balki loyixalanayotgan rakamli qurilmani sintez va analiz qilish uchun turli xil vositalariga egadir.


Bayt o'Ichamidagi so'zlar kodi ketma-ketligini shakllantiruvchi raqamli qurilmani (RQ) qurishni ko'rib chiqamiz. Qurilma ikkita yetti segmentli 16 tali belgilar ko'rinishidagi indikatorni aks ettirishi kerak.

RQ quyidagi funktsional bloklardan tashkil topgan:

- Raqamli takt impulslar manbai (generator) (TIG);
- Chastota bo'luvchisi (ChB);
- Hisoblagich sxemalar (XS);
- Hisoblagich sxemalar holatlari deshiffratorlari (DHS);
- Yettisegmentli indikatorlar (SI).

TIG ChB ga kirayotgan berilgan  $f_1$  chastotali raqamli impulslni shakllantiradi. ChB chikishida chastotaning rakamli impul'slari shakllantiriladi  $f_2 = f_1/Kd$ , bu yerda  $Kd - f_1$  bo'lish chastotasining berilgan koeffitsienti.

ChB chiqishidan XS ga impulslar kiradi. XS sxemalari belgilangan holatlar soniga ega. XS larning boshlang'ich holatlarida nol yozilgan. XS da har bir yangi impuls kirishi bilan keyingi holatga o'tadi, bu SI da o'noltitali son ko'rinishida keladi. XS da holatlar SI da belgilarga o'zgarishi uchun DXS xizmat kiladi. Ushbu RQ ning blok-sxemasi rasm-1 da keltirilgan.



1-rasm. RQ ning blok sxemasi

Blok sxemada chap zanjirning bir xil turdag'i HS va DHS larning bloklari SI da belgi kodlarni aks ettirish va yuqori razryadlarni, o'ng tomondagisi kichik razryadlarni o'zgartirishga xizmat qiladi.

HS ning 6 holati berilgan bo'lsin, har birida SI da ketma-ket o'noltili sonlar: 00, 3S, A7, 41, d5, 9E aks ettirilishi kerak.

Berilgan RQ ning sintezi va hisoblashni oxiridan boshlash kerak, ya'ni DHS larni hisoblashdan boshlash kerak.

## 6.2. DHS larning sxemalarini hisoblash va sintez qilish

Loyihalashni DHS ning SI kichik razryadidan boshlaymiz. Kichik razryadli indikatorda topshiriqqa muvofiq quyidagi sonlar aks ettiradi: 0, S, 7, 1, 5, E.

DHS sxemasini sintezi uchun uning haqiqiylik jadvali tuziladi (2-jadval). Unda berilgan belgilarning ikkili ekvivalentlari va ularga mos SI segmentlari holatlari yoziladi: agar segment berilgan belgi aks ettishi uchun yoqilsa, u holda unga mos katakda 1, agar yo'q bo'lsa, u holda 0 yoziladi.


Har bir segmentning holatlar jadvalini 4-chiqishli funksiya o'zgaruvchilar:  $X_0, X_1, X_2, X_3$  sifatida ko'rish kerak, chunki 4-razryad yordamida berilgan 16-li sonni ifodalash mumkin.

2-jadval


SS holati №	SI da belgilanishi	DHS kirishlari				SI segmentlar holatlari						
		$X_3$	$X_2$	$X_1$	$X_0$	a	b	c	d	e	f	g
0	0	0	0	0	0	1	1	1	1	1	1	0
1	S	1	1	0	0	1	0	0	1	1	1	0
2	7	0	1	1	1	1	1	1	0	0	0	0
3	1	0	0	0	1	0	1	1	0	0	0	0
4	5	0	1	0	1	1	0	1	1	0	1	1
5	E	1	1	1	0	1	0	0	1	1	1	1

Haqiqiylik jadvali asosida ko'rsatilgan funktsiyalarni minimizatsiyasini bajarish kerak. Odatda bu Karno xaritasi yoki Veych diagrammasi yordamida amalaga oshiriladi. Multisim dasturida undan ham oson minimallashtirish mumkin. Buning uchun maxsus virtual vositalardan foydalanish - mantiqiy o'zgartkichda haqiqiylik jadvali orqali tayyor sxemani olish mumkin. Bunda A, B, C, D lar mantiqiy


o‘zgartgichdagi o‘zgaruvchilar o‘zgaruvchilarga mos keladi. Segmentlarning funktsiyasini amalga oshirilishi keltirilgan. Bu rasmlardagi yuqoridagi sxema bulev bazisida qurilgan, pastkisida VA-EMAS bazisida joylashgan. 1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Ff va Fd funktsiyalar tengdir. Shuning uchun Fd funktsiyani topilganidan keyin Ff ni olish talab etilmaydi.




2- rasm. Mantiqiy o‘zgartgichda Fa – Fd segmentlar funksiuasi




3-rasm. Mantiqiy o‘zgartgichda Fe segment funksiuasi




4-rasm. Mantiqiy o‘zgartgichda Fg segment funksiuasi



5-rasm. Mantiqiy o‘zgartgichda ME o‘zgarishlarini bajarish




6-rasm. Mantiqiy o‘zgartgichda ME o‘zgarishlarini bajarish



7-rasm. Mantiqiy o‘zgartgichda ME o‘zgarishlarini bajarish


Shuningdek, 1-jadvaldan va 4,6 rasmlardan  $F_s = X'_3$ , esa  $F_e = X'_0$  (shtrix inversiyani bildiradi) ligi ko‘rinib turibdi, ya’ni  $F_s$  va  $F_e$  ni amalga oshirish uchun o‘zgaruvchilar inversiyasidan foydalanish kerak, mos ravishda  $X_3$  va  $X_0$ . So‘ngra hamma funktsiyalarning segmentlarini DHS larning SI ning kichik razryadiga birlashtirish lozim. 8 –rasmda bulev bazisidagi ushbu sxema keltirilgan. VA-EMAS bazisidagi DHS sintezi (agar topshiriq bo‘yicha talab qilinsa) shuningdek, qiyinchilik tug’dirmaydi.

Sxema ishining to‘g‘riligi va sintezini uning kirishlarini, masalan, so‘z generatoriga ulab, chiqishlarni esa, yettisegmentli indikatorga (Indicators guruhi, HEX\_DISPLAY oilasi, SEVEN\_SEG\_COM\_K\_ORANGE komponenti) ulash kerak. Yuqori razryadli SI DHS sintezi quiy razryadliga o‘xshab bajariladi. Bunda  $F_a = X'_2$ ,  $F_b = F_s = 1$ ,  $F_d = X'_3 X'_2 + X_0$ ,  $F_e = X'_2 X'_0 + X_2 X_0$ ,  $F_f = X'_2 X'_1 + X'_0$ ,  $F_g = X_0 + X_1 + X_2$  bo‘ladi. Shuni ta’kidlash kerakki,  $F_b$  va  $F_s$  funktsiyalar segmentlari tenglik holatida oson sxemali ko‘rinishini beradi.  $b$  va  $s$  segmentlarni VCC mantiqiy birlik manbaiga ulash kerak.



8-rasm. VA-EMAS bazisidagi DHS sintezi

9 –rasmda bulev bazisidagi yuqori razryad SI DHS sxemasi keltirilgan. 11-rasmda quyi razryadli tayyor hisoblash sxemasi ko’rsatilgan. Rasmda ko’rinib turibdiki, funktsiyani amalga oshirish sxemaning kombinatsion qismidagi D-kirishlari triggerlarning to’g’ri va inversli chiqishlaridan foydalilanadi.



9-rasm. Yuqori razryad SI DHSi sxemasi

### 6.3. Hisoblagich sxemasini hisoblash va sintez qilish

Loyihalanayotgan RQning hisoblagichchi hisoblagichning berilgan holatiga o’tishini tashkil qiladigan sinxron hisoblagich sxemalar printsipli asosida qurilishi kerak. Odatda bunday sxemalarning sintezi uchun o’tish jadvallari tuziladi. 10-rasmda kichik razryadli loyihalanayotgan

hisoblash sxemalarining o‘xshasha jadvallari keltirilgan. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, hisoblagich sxemaning triggerlarining D- kirishlari holatlari keyingi chiqishlar holatlariga mos keladi. Bu holatda HS ning yangi holatga o‘tishida uning chiqishlarida SI da berilgan belgilarga mos keladigan kodli so‘zlar shakllanadi.


D-kirishlar funktsiyasi sintezi DHSlarda funktsiya segmentlar kabi bajariladi. Shuni hisobga olish kerakki, agar mantiqiy o‘zgartikichlar yordamida sintez qilish uchun A,B,C,D 4 ta o‘zgaruvchilar qo‘llansa, u holda ular  $Q_3, Q_2, Q_1, Q_0$  o‘zgaruvchilarga mos kelishi kerak.

Natijada  $F_{D0} = Q'_2 Q_0 + Q'_3 Q_1 + Q_3 Q'_1$ ,  $F_{D1} = Q_2 Q'_1$ ,  $F_{D2} = Q'_1$ ,  $F_{D3} = Q'_3 Q'_0 + Q'_3 Q_2 Q'_1$  ni olamiz.


Sxemaning sintezi, ishi va sxemani sozlanishi to‘g‘riligini tekshirish uchun uni S-kirishini VCC manbaiga, chiqishlariga esa 16-li so‘zning yettisegmentli indikatorni ularash kerak. Yuqori razryad HS sintezi kichik razryadliga o‘xshab bajariladi. Bunda  $F_{D0} = Q'_3 Q'_1 + Q_2$ ,  $F_{D1} = Q'_3 Q'_2$ ,  $F_{D2} = Q'_3 Q_2 + Q_1 Q'_0$ ,  $F_{D3} = Q'_3 Q_0 + Q_2$  bo‘ladi. 12- rasmida HS tayyor katta razryad hisoblagich sxemasi ko‘rsatilgan. Uni ham sintezi va ishini tekshirish lozim.

SS holati №	SI da belgilanishi	SS-chiqishlar holatlari				D- kirishlar holati			
		$Q_3$	$Q_2$	$Q_1$	$Q_0$	$D_3$	$D_2$	$D_1$	$D_0$
0	0	0	0	0	0	1	0	0	0
1	C	1	1	0	0	0	1	1	1
2	7	0	1	1	1	0	0	0	1
3	1	0	0	0	1	0	1	0	1
4	5	0	1	0	1	1	1	1	0
5	E	1	1	1	0	0	0	0	0

10-Rasm. Kichik razryadli loyihalanayotgan hisoblash sxemalari



11-rasm. Quyi razryadli tayyor hisoblash sxemasi




12- Rasm. HS tayyor katta razryad hisoblagich sxemasi

#### 6.4. Chastota bo‘luvchi sxemasini sintez qilish

Chastota bo‘luvchi asinxron ikkili hisoblagich asosida quriladi. Chastota bo‘luvchining  $K_d=9$  sxemasi 13-rasmda ko‘rsatilgan. ChB razryadlar sonini  $K_d$  berilgan qiymatlarda ikkili razryadlarni miqdori bo‘yicha aniqlash mumkin.  $9=1001$  sonining ikkili kodi 4 razryaddan tuzilgan bo‘lsa, u holda ChB sxemasi 4 ta trigger asosida quriladi.  $n$ -razryadli hisoblash asinxron sxemaning moduli  $M=2^n$  ifodasi bilan aniqlanadi.

Loyihalanayotgan ChB ning moduli  $M=2^4=16$ , Kd dan katta. Shuning uchun sxemaning hisobini shunday o'zgartirish kerakki, har bir 9 kirish impulsida bitta chiqish impulsni shakllanishi kerak. Buni qo'shimcha kombinatsion sxemalar yordamida amalgalash mumkin, har bir 9-chi kirish impuls sbros signali ChB ning hamma razryadlarini boshlang'ich nol holatga shakllantirishi kerak. Buning uchun ustma-ust tushuvchi oddiy sxemasini qo'llash mumkin. 13-rasmda bunday mantiqiy element sxemasi bo'lib 4 VA xizmat qiladi. Ularning chiqishlari to'g'ri va inversli chiqishlari ChB ga mos razryadlar holat chiqishlariga bog'liq ravishda ulanadi. Bizning ChB ustma-ust tushuvchi sxema kirishlari 0chi va 3 chi razryadlar to'g'ri chiqishlariga, va 1 chi va 2 chi razryadlar inversli chiqishlariga ulanadi. Bu holatda 9-chi kirish impulsining kelishi ChB da hamma birlarning ko'rsatilgan chiqishlarida hosil bo'lishini keltirib chiqaradi, natijada mantiqiy element chiqishida mantiqiy bir signalni shakllanadi. Mantiqiy elementning chiqishi hamma triggerlarning R – sbros kirishiga ulangan bo'lsa, u holda 9-chi impulsida ChB boshlang'ich holatga o'tadi.




### 13-rasm. Chastota bo‘luvchisi sxemasi

ChB ning ushbu sxemasida to‘g‘ri R-kirishli D-trigger qo‘llaniladi. Agar R-kirishli D-trigger qo‘llanilsa, u holda triggerlarning sbrosi 1ga emas, nolga o‘tishini hisobga olish kerak. Unda bunday mantiqiy element o‘rniga 4 VA-EMAS mantiqiy elementini olish kerak bo‘ladi yoki bizning sxemamizni invertor orqali ulash lozimdir.


13-rasmdagi ChB sxemasini yig'ing va tadqiq qiling. Kalit yordamida kirish impulslarini uzating va 9 chi impulsda sxema nolinchi holatga o'tishiga ishonch hosil qiling.

## 6.5. TIG sxemasini sintez qilish

TIG sifatida generatorlarning namunaviy sxemasini va takt impulslar shakllantiruvchisini olish mumkin. Mantiqiy elementlardagi TIG misollari 14-16 rasmlarda keltirilgan.



14-rasm. Takt impulslar generatoti sxemasi




15-rasm. 2 YoKI-EMAS mantiqiy elementlari orqali TIG

15-rasmda, 14- rasmdan farqli TIGlarni 2 YoKI-EMAS mantiqiy elementlari orqali ishga tushurish imkonini ko‘zda tutilgan. 16 rasmdagi sxemada o‘zgaruvchi rezistr yordamida TIG chiqish signallari chastotalari bir tekis o‘tish imkoniyatlari ko‘zda tutilgan.


Bu sxemalarning R i C parametrlari f chastota bilan  $f=1+20RC$  munosabat bilan bog’langan. Uning asosida R va C larni qiymatini hisoblash mumkin. Masalan, Naprimer,  $f_1=50\text{Gts}$  va  $S = 0,1\text{mks}$  berilgan. U holda hisoblash natijasi  $R = 10\text{k}\Omega$ .

15-rasmdagi sxemani  $f_1=50$  Gts olish uchun yig'ing va tadqiq qiling. TIG ishini tekshirish uchun uning chiqishiga chastotomer (Freq Counter – XFC1) ulash kerak. Agar chastota berilgandan farq qilsa, u holda R yoki C ni tanlash bilan qiymatlarga tuzatishlar kiritish kerak. Har bir funksional qurilmani sintez qilishdan keyin test o'chov asboblari yordamida uning ish qobiliyatini tekshirish kerak. So'ngra hamma sxemalarni bitta yagona sxemaga birlashtirish kerak va oxirgi ulash va tekshirish ishlarini bajarish kerak. Loyihalanayotgan sxemaning funksional bloklarini yanayam ixcham lashtirish uchun ularni qism sxemalar bilan almashtirish mumkin. Shuningdek, sxemaning maydonini to'suvchi o'tkazgichlarning sonini kamaytirish uchun shinalardan foydalanilsa bo'ladi.



16-rasm. O'zgaruvchi rezistr yordamida TIG sxemasi

Tayyor RQ ning funksional blokli va shinali qism sxemalari bilan umumiyligi sxemasi 17 rasmda keltirilgan.



17-rasm. RQ ning funksional blokli va shinali qism sxemalari bilan umumiy sxemasi

7. Kurs loyihasini himoyaga taqdim etish va taqrizlar, himoya qilish va baholash mezoni

Kurs loyihasini himoya qilish talabaning bajarilgan ishlar bo'yicha qisqacha dokladidan va savollarga javobidan, bunda beriladigan savollar kurs loyihasi asoslanadigan nazariya va amaliyot bo'limlariga taaluqli bo'ladi. Himoyadan oldin kurs loyihasining tugallangan va rasmiylashtirilgan hisob-tushuntirish qismi talaba tomonidan imzolanadi va rahbarga tekshirishga belgilangan muddatdan uch kun topshiriladi.

Loyihani baholanayotganda texnik echimning tahlilining hajmi va murakkabligi, bajarilgan hisoblashlarning sifati, ishni bajarilishi va rasmiylashtirish darajasi, ishni himoya qilishdagi ma’ruzaning mazmuni va savollarga javoblar hisobga olinishi kerak.

Loyihani himoyasi hay'at oldida ma'ruzani va savol-javobni o'z ichiga olgan holda amalga oshiriladi. Loyihani himoyasida talabaga ma'ruba uchun 8 minutga yaqin vaqt ajratiladi. Himoyaning umumiy davomiyligi 10...15 minutni tashkil etadi.

## 8. Adabiyotlar ro‘yxati

1. Певницкий С.Ю. Разработка печатных плат в NI Ultiboard. Издательство: ДМК Пресс, 2012. – 256 с.
2. Гололобов В.Н. Proteus VSM - русское руководство Издательство: ДМК Пресс, 2012. – 26 с.
3. Улжаев Э. Микропроцессорлар ва микроЭХМ асослари. Ўкув қўлланма. –Тошкент. 2012.
4. Хернитер Марк Е. Multisim 7: Современная система компьютерного моделирования и анализа схем электронных устройств / Пер. с англ. А.И. Осипова. – М.: Издательский дом ДМК-пресс, 2006.
5. Кардашев Г.А. Виртуальная электроника. Компьютерное моделирование аналоговых устройств. – М.: Горячая линия – Телеком, 2002. – 260 с.
6. Кучумов А.И. Электроника и схемотехника: Учеб. пособ. М: Гелиос АРВ, 2002.
7. Новожилов О.П. Основы цифровой техники: Учеб. пособие для вузов. – М.: ИП «Радиософт», 2004.
8. Миловзоров О.В. Электроника: Учебник для вузов. – М.: Высш. шк., 2005.
9. Лачин В.И., Савёлов Н.С. Электроника: Учеб. пособ. Ростов н/Д: изд-во Феникс, 2000.
10. Браммер Ю.А. Цифровые устройства: Учеб.пособ. для вузов. М.:Высп.шк. 2004.

Sarvaraq namunasi

1-ilova

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

Kafedra .....

“Elektron qurilmalarni loyihalash va konstruktsiyalash(CAD, CAM, CAE)”  
fanidan

---

mavzuidagi kurs loyihasining hisob-tushuntirish yozuvni

Bajardi: \_\_\_\_\_ -guruh talabasi\_\_\_\_\_

Rahbar: \_\_\_\_\_

imzo

F.I.O

Toshkent-2020

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

Tasdiqlayman .....  
.....Kafedra mudiri

Kafedra \_\_\_\_\_  
202... yil «.....» .....

Kurs loyihasi (ishi)

Fan

Guruhi \_\_\_\_\_ Talaba \_\_\_\_\_ Rahbar \_\_\_\_\_

T O P S h I R I Q

1. Loyiha mavzusi \_\_\_\_\_

2. Dastlabki ma'lumotlar \_\_\_\_\_

3. Qo'llanmalar \_\_\_\_\_

4. Hisoblash-tushuntirish yozuvি \_\_\_\_\_

5. Grafik qismining tarkibi \_\_\_\_\_

6. Qo'shimcha ma'lumotlar va ko'rsatmalar \_\_\_\_\_

7. Loyiha(ishi)ni topshirish muddati

					Himoya
Fakt					
Reja					

Talaba .....

Rahbar .....

### Kurs loyihalariga mavzular

Nº var.	Kurs loyihasi mavzusi	ME bazisi
1	3-razryadli Shifratorni loyihalash	VA-EMAS
2	4-razryadli Shifratorni loyihalash	VA-EMAS
3	3-razryadli Shifratorni loyihalash	YoKI-EMAS
4	4-razryadli Shifratorni loyihalash	YoKI-EMAS
5	Ikkili-o'nli Shifratorni loyihalash	VA-EMAS
6	Ikkili-o'nli Shifratorni loyihalash	YoKI-EMAS
7	3-razryadli Deshifratorni loyihalash	VA-EMAS
8	3-razryadli Deshifratorni loyihalash	YoKI-EMAS
9	4-razryadli Deshifratorni loyihalash	VA-EMAS
10	4-razryadli Deshifratorni loyihalash	YoKI-EMAS
11	Ikkili-o'nli Deshifratorni loyihalash	VA-EMAS
12	Ikkili-o'nli Deshifratorni loyihalash	YoKI-EMAS
13	4-razryadli yarimjamlagichni loyihalash	VA-EMAS
14	4-razryadli yarimjamlagichni loyihalash	YoKI-EMAS
15	4-razryadli to'liq jamlagichni loyihalash	VA-EMAS
16	4-razryadli to'liq jamlagichni loyihalash	YoKI-EMAS
17	3-razryadli Multipleksorni loyihalash	VA-EMAS
18	3-razryadli Multipleksorni loyihalash	YoKI-EMAS
19	4-razryadli Multipleksorni loyihalash	VA-EMAS
20	4-razryadli Multipleksorni loyihalash	YoKI-EMAS
21	3-razryadli Demultipleksorni loyihalash	VA-EMAS
22	3-razryadli Demultipleksorni loyihalash	YoKI-EMAS
23	4-razryadli Demultipleksorni loyihalash	VA-EMAS
24	4-razryadli Demultipleksorni loyihalash	YoKI-EMAS
25	6-razryadli yarimjamlagichni loyihalash	VA-EMAS
26	6-razryadli yarimjamlagichni loyihalash	YoKI-EMAS
27	6-razryadli to'liq jamlagichni loyihalash	VA-EMAS
28	6-razryadli to'liq jamlagichni loyihalash	YoKI-EMAS
29	8-razryadli siljituvchi registrni loyihalash	VA-EMAS
30	8-razryadli siljituvchi registrni loyihalash	YoKI-EMAS

## Mundarija

KIRISH .....	3
1. Kurs loyihasining maqsadi .....	3
2. Kurs loyihasini bajarish bo'yicha ko'rsatmalar.....	4
3. Bajarish tartibi va muddatlari .....	5
Kurs loyihasining hajmi.....	6
4. Kurs loyihasi(ishi)ning mavzulari va mavzularni tanlash tartibi .....	6
5. Hisob-tushuntirish qismiga talablar.....	6
6. Grafik qismini rasmiylashtirishga talablar .....	7
6.1. Kurs loyihasini Multisim muxitida bajarish namunasi .....	7
6.2. DHSlarning sxemalarini hisoblash va sintez qilish. ....	9
6.3. Hisoblagich sxemasini hisoblash va sintez qilish.....	13
6.4. Chastota bo'lувчи sxemasini sintez qilish .....	15
6.5. TIG sxemasini sintez qilish.....	17
7. Kurs loyihasini himoyaga taqdim etish va taqrizlar, himoya qilish va baholash mezoni.....	19
8. Adabiyotlar ro'yxati.....	20
1-ilova .....	21
2-ilova .....	22
Kurs loyihalariga mavzular.....	23

Muharrir: Sidikova K.A.  
Musahhih: Tashpulatova Sh.A.

Bosishga ruhsat etildi 25.08.2020 y. Bichimi 60\*84 1/16.  
Sharflı bosma tabog'i 1,5. Nusxasi 50 dona. Buyurtma № 109.  
TDTU bosmaxonasida chop etildi. Toshkent sh, Universitet ko'chasi 2.